

NOTINCH OILALAR BILAN MANZILLI PROFILAKTIKA ISHLARINI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI



Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi
ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor



Murodov Alisher Sharofxonovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Magistratura boshlig'i o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish hamda oila-turmush doirasidagi zo'ravonlikni oldini olishga doir fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: notinch oila, nosog'lom turmush-tarzi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, manzilli profilaktika, huquqbuzar, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

НАПРАВЛЕНИЯ ПО ОРГАНИЗАЦИИ АДРЕСНО-ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С НЕБЛАГОПОЛУЧНЫМИ СЕМЬЯМИ

Аннотация. В статье содержатся мнения и комментарии по вопросам организации адресной профилактической работы с неблагополучными семьями и предупреждения домашнего насилия.

Ключевые слова: неблагополучная семья, нездоровый образ жизни, потерпевший от преступления, адресная профилактика, правонарушитель, профилактика правонарушений.

DIRECTIONS FOR THE ORGANIZATION OF TARGETED PREVENTIVE WORK WITH DISTURBED FAMILIES

Abstract. The article contains opinions and comments on the organization of targeted preventive work with dysfunctional families and the prevention of domestic violence.

Keywords: dysfunctional family, unhealthy lifestyle, victim of crime, targeted prevention, offender, prevention of offenses.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik

hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarining asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va kompleks chora-

tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son farmonida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishish, shuningdek, mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining respublika mahallalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida olib borayotgan faoliyatini 2025-yilda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda «Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish» ustuvor vazifa etib belgilandi va ularning ishlash mexanizmlarini joriy etuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1-son qarori qabul qilindi [1]

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda mahalla, uning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mazkur maqolada mahallaning asosini tashkil etuvchi oilada, oila-turmush sohasida vujudga keladigan ijtimoiy-moddiy (moliyaviy), sotsial-psixologik, ma'naviy-axloqiy muhitni o'rganish, ushbu jabhadagi muammolarni tizimli ilmiy-nazariy tahlil etish; nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan oilalarda shaxs (ayniqsa ayollar, bolalar) huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

Bugungi kunda notinch oilalarda yuzaga kelayotgan nizolarni, oila-turmush munosabatlari doirasida shaxsga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rga-

nish, bartaraf etishga ilmiy yondashish, tegishli ta'sirchan va samarali ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarni yaratishga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish har doimgidan ham muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida «inson qadrini ulug'lash», «insonparvarlik» g'oyalari hamda tamoyillarini qonunchilikka singdirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan tub islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bunda, xususan, oila institutining himoyasi, uning huquqiy muhofazalangan bo'lishini ta'minlashga alohida urg'u berilmoqda. Oiladagi zo'ravonlik (shu jumladan ayollarga nisbatan), tazyiq va tahdidlarning samarali profilaktikasini tashkil etish, xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanishini kamaytirish, ayollarga nisbatan zulm va zo'ravonlikning oldini olish choralari ko'rish ularni hayotga izchil joriy etish yo'llari hamda mexanizmlarini yaratishda jamoatchilik, mahallalarning ta'sir kuchiga tayanish muhimdir.

Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda profilaktika inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda nosog'lom turmush tarzi kechirayotgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ular bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borishlari bu boradagi huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, profilaktika inspektori va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lishi, jinoyatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan oiladagi ushbu salbiy illatni barvaqt profilaktika qilishi talab etiladi.

Professor M.Z. Ziyodullayevning fikricha, nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan oilalarni toifalarga ajratish hamda ular bilan maqsadli hamda manzilli ishlarni tashkil etish oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda muhim omil hisoblanadi [2].

Professor Q.R.Abdurasulovanning ta'kidlashicha, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanganlar xulq-atvorini jamiyat o'rtasidagi munosabatlar zamirida o'rganish quyidagi masalalarni tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi: 1) jabrlanuvchi

shaxsining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, mashg'ulot turi, oilaviy ahvoli va hokazolarni tavsiflovchi ijtimoiy demografik belgilari; 2) uning oilada, maktabda, ishda va hokazolarda shakllanish jarayonini aniqlash imkonini beruvchi shaxsning hayoti va tarbiyasi natijalari 3) jabrlanuvchining qarashlari va odatlari, xulq-atvorining motivlari, uning jamiyat va mehnatga munosabati; 4) yon atrofidagilar, xususan, ijtimoiy guruhlar, qarashlar, qadriyatlar, ko'rsatmalar jabrlanuvchi qarashlari bilan tutashganligi va hokazo. [3]

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida oilalarni quyidagi toifalarga ajratish va ular bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borish lozim:

1) nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan oilalar ro'yxati – bazasini yuritish;

2) kam ta'minlangan oilalar hisobotini yuritish;

3) huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud shaxslar yashaydigan oilalarning viktimologik monitoringi;

4) spirtli ichimlik va giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxslar yashaydigan oilalarda profilaktik targ'ibot olib borish. [4]

Nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan oilalar bilan quyidagi yo'nalishlarda ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

➤ shaxs huquq va erkinligini ta'minlash, oilaviy-maishiy hayotda yuzaga kelgan nizolarni murosa yo'llari bilan hal etish hamda oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash choralari ko'rish;

➤ oilaviy ajralishlarning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, fuqarolik jamiyati institutlari ("mahalla yettiligi") va keng jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik qilish;

➤ fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlarini muntazam olib borish;

➤ oila-turmush munosabatlari doirasida shaxsga (ayniqsa ayollarga) nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon

berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil etish, bartaraf qilish choralari ko'rish;

➤ oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshirish;

➤ ma'muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ularga ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni tashkil etish;

➤ ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo'lgan oilalar bilan viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish;

➤ ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish [5];

➤ ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash.

Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashish, xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikning barcha turlari va shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.[6] Unda ayollarning oiladagi o'rni, huquqiy maqomi, ularni himoyalash huquqiy kafolatlari hamda mexanizmlari masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur qonunda, xususan, notinch oilalarda yashayotgan shaxslarni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida notinch oilalardagi nizoli holatlarni bartaraf etish choralari ko'rish yuzasidan "mahalla yettiligi" bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirishga alohida urg'u berilgan.

Ilmiy izlanishlar va amaliyot tahlili asosida quyidagilarni bayon etish mumkin:

Birinchidan, kam ta'minlangan oilalar bilan

quyidagi yo'nalishlardagi profilaktik ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- hududdagi oilalarni uyma-uy yurish orqali o'rganish asosida kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularning ro'yxatini shakllantirish;
- oilalardagi mavjud muammolarni o'rganish va ularni aniqlashga qaratilgan amaliy ishlarni tashkil etish;
- kam ta'minlangan oilalar bilan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida hokimiyat idoralari bilan ularga amaliy yordam ko'rsatish choralari ko'rish;
- hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
- uyma-uy yurish va o'rganish asosida aniqlangan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlash-tirish;
- shaxsning oilaviy sharoitini, yaqinlari va atrofdagilar bilan o'zaro aloqalarini o'rganish;
- kam ta'minlangan va ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan oilalarga ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatish, daromad manbaiga ega bo'lishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;
- moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar mavjud bo'lgan oilalar o'rganilganida ularning aksariyatida ishsiz, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslar aniqlangan, ularni ish bilan ta'minlash choralari ko'rish.

Ikkinchidan, huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud shaxslar yashaydigan oilalarni viktimologik o'rganish, ular bilan quyidagi yo'nalishlarda ishlarni tashkil etish lozim:

- maishiy zo'rlikdan jabrlangan shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida *"himoya orderi"* berish tizimini samarali tashkil etish va uning nazoratini ta'minlash [4];
- oila-turmush doirasida zo'ravonlikka duchor bo'layotgan shaxslar o'rtasida (anonim) ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda ushbu qilmishlarning latentligini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- maishiy zo'rlikning sabab va sharoitlarini o'rganish, tahlil qilish va ularni barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratish;

➤ maishiy zo'rlikdan jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda ishonch telefonlari faoliyatini samarali tashkil etish;

➤ zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarga o'z vaqtida va manzilli yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish, o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvor paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va unga erta barham berish maqsadida no-davlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish;

➤ oila-turmush doirasidagi jinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari va kelib chiqishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni o'rganish hamda ommaviy axborot vositalari orqali aholini muntazam xabardor etib borish;

➤ oiladagi dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan jamoatchilik fikrini o'rganish, ular asosida nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatish va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etishga doir dasturlar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

➤ oilada sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish va tahlil qilish;

➤ ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo'lgan oilalar bilan viktimologik profilaktikani tashkil etish;

➤ ma'muriy hududdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

➤ ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash;

➤ huquqbuzarliklarning sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish [7];

➤ notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning

zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida "himoya orderi" berish va tushuntirish ishlarini olib borish;

- oiladagi zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifalarini aniqlash, ularni muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish.

Uchinchidan, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar yashaydigan oilalar bilan quyidagi yo'nalishda ishlarni tashkil etish lozim:

- spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar yashaydigan oilalarni aniqlash va ularning ro'yxatini shakllantirish;
- spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolash muassasalariga yuborish ishlarini tashkil etish;
- spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni ish bilan bandligini ta'minlash choralari ko'rish;
- jamoatchilikni spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar yashaydigan oilalardagi muhitni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha tarbiyaviy ishlariga jalb etish;
- oilaviy-maishiy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri – shaxsning spirtli ichimlikka ruju qo'yishi. Spirtli ichimlik iste'mol qilish natijasida shaxs o'z xatti-harakatining oqibatini anglab yetmasligi natijasida jamiyatga, atrofdagilarga befarqlik va hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishini inobatga olib, ushbu illatni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarini o'rganish;
- spirtli ichimlik oila-turmush doirasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi keng tarqalgan kriminogen omil ekanligini o'rganish.

Demak, yuqorida keltirilganlarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) biriktirilgan hududdagi har bir oilani o'rganib chiqish, notinch oilalarni aniqlash, hisobini yuritish, oila-turmush doirasida nizolar

sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

2) oilaviy janjallar oqibatida yuzaga kelgan er-xotin, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasida sodir etilgan nizolar tufayli buzilgan munosabatlarni tiklash borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3) ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, notinch va kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ro'yxatini shakllantirish hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish yuzasidan hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotinqizlar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish qo'mitasi bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish;

4) oilada milliy qadriyat va urf-odatlariga zid, axloq-odob doirasidagi nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, tarbiyaviy ta'sir choralari muhtoj bo'lgan, oilada huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarni aniqlab ular bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni kuchaytirish;

5) profilaktika xizmatining jamoatchilik bilan o'zaro axborot almashuv va amaliy hamkorligi samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni to'g'ri va muntazam tashkil etish;

6) oilaviy-maishiy sabablarga ko'ra sodir etilgan huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar muhokamasini tashkil etish va o'tkazish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish;

7) mahalliy joylarda sodir etilgan oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va kelgusida ushbu turdagi huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqib, amalga oshirish;

8) profilaktika inspektorlari o'zi mas'ul bo'lgan hududdagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, xotin-qizlar masalasi bo'yicha mutaxassis bilan hamkorlikda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishga qaratilgan rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish va hokazo.

Shunday qilib, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar profilaktika xizmatlari oldiga fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tuzilmalari va keng jamoatchilik bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikning yangi usul va shakllarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida aytish lozimki, ayollarga nisbatan zo'ravonlik ham psixologik, ham sotsiologik jihatdan yildan-yilga chuqurroq va kengroq o'rganilishi lozim, jamiyat va bashariyat qarashlari zamon bilan uyg'unlashuvi muhim. Insoniyatni tashkil etuvchi ikki jinsdan biri, yangi avlod shakllanishida eng avvalgi mas'uliyat zimmasida bo'lgan, ammo, ruhan va jismonan ezilgan, toliqqan ayol bilan millatning rivojlanishi haqidagi fikrlar puch bo'lib qolaveradi.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori / <https://lex.uz/uz/docs/7330260>
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni jilovlash bo'yicha "fuqarobay", "oilabay" va "mahallabay" ishlash tizimini tashkil etish metodikasi: O'quv-metodik qo'llanma / M.Z.Ziyodullayev, A.S.Tursunov, A.Sh.Murodov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 25-b.
3. Kriminologik tadqiqotlar davlat hisoboti: Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 56-b.
4. Murodov A.Sh. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanishining oldini olish masalalari: // Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimidagi dolzarb muammolar va ularning yechimi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024. – B. 136.
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: Darslik / B.A.Matlyubov, A.S.Tursunov, S.B.Xo'jaqulov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 48.
6. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni / <https://lex.uz/docs/4494709>
7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuniga ilmiy-amaliy sharh. / Mualliflar jamoasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – B.58

